



HANAFIY MAZHABIDA QOZILIK FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI

Sherboyev Nodirbek

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti xodimi

Sherboyev0303@example.com

Islom huquqi tizimida qozilik – shariat ahkomlarini amaliyotda qo‘llash va jamiyatda adolatni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan asosiy institutsiyalardan biridir. Qozining vazifasi nizolarni shar‘iy dalillar asosida hal qilish, da‘vo va javoblarga hukm chiqarish, insonlar o‘rtasida adolatni qaror toptirishdan iboratdir. Bu faoliyat Qur‘on va Sunnatda aniq asosga ega bo‘lib, Islom jamiyatida adolat va tartibni ta‘minlovchi markaziy mexanizm sifatida rivojlanib kelgan.

Qur‘oni Karimda hukm qilish (qozilik) vazifasi Allohning amri sifatida keltiriladi. Jumladan:

“Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o‘z ahliga topshirishingizni va odamlar orasida hukm qilganingizda adolat ila hukm qilishingizni amr qilur. Alloh sizlarga qanday ham yaxshi va‘z qilur! Albatta, Alloh o‘ta eshituvchidir, ko‘rib turuvchidir” .

“Agar hukm qilsang, oralarida adolat ila hukm qil. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni sevadir” .

Bu oyatlardan ko‘rinib turibdiki, qozilik faoliyati Alloh tomonidan belgilangan va adolat asosida olib borilishi lozim bo‘lgan mas‘uliyatli vazifadir. Muhammad (s.a.v.) o‘z hayotlarida qozilik vazifasini shaxsan bajarganlar. U zot sahobalar o‘rtasidagi nizolarni shariat asosida hal qilgan. Shuningdek, Muoz ibn Jabalni Yamanga qozilikka yuborish voqeasi mashhur:

“Nima bilan hukm qilasan?” – “Allohning kitobi bilan.” “Unda topmasang-chi?” – “Rasulullohning sunnati bilan.” “Unda ham topmasang-chi?” – “O‘z ijthodim bilan” .

Bu hadis qozilik faoliyatida dalillarning tartibi va ijthodning o‘rnini ochiq ko‘rsatadi.

Hanafiy ulamolari qozilikni shunday ta‘riflaydilar:

Qozilik – shar‘iy sudlov vakolati bo‘lib, nizolar va da‘volarni shariat asosida hal etish va Allohning hukmlarini jamiyat hayotida amalga oshirish faoliyatidir.

Qozining vazifasi – haqli kimsaning haqini berish, nohaqdan haqni olish, dalillarni baholash, guvohliklarni qabul qilish, hujjatlar asosida hukm chiqarish, jamoatda adolat va ijtimoiy barqarorlikni saqlashdir.

Hanafiy mazhabi islom fiqh maktablari ichida eng qadimiy va keng tarqalgan maktablardan biridir. Ayniqsa qozilik faoliyati va sud-huquq tizimining shakllanishi masalasida Hanafiy fiqhi alohida o‘ziga xos va chuqur metodologik yondashuv ishlab chiqqan. Hanafiy qozilik tizimi Qur‘on va Sunnat asosida rivojlana turib, mujtahid imomlarning keng qamrovli ijthodiy faoliyati orqali mukammallashgan.

Abu Hanifaning eng yirik shogirdlaridan biri bo‘lgan Abu Yusuf Ya‘qub ibn Ibrohim xalifa Harun ar-Rashid davrida islom tarixidagi birinchi “Qozi al-quzzot” (bosh qozi) lavozimiga tayinlandi. Bu voqea Hanafiy sud-huquqi rivojida burilish nuqtasi bo‘ldi. Abu Yusuf:



- markazlashgan qozilik tizimini yaratdi,
- qozilarning tayinlanish va faoliyat yuritish qoidalarini ishlab chiqdi,
- qozilik sudlovida usuliy va amaliy mezonlarni belgilab berdi.

Abu Yusufning mashhur asari “Kitab al-Xaroj” xalifa talabiga binoan yozilgan bo‘lib, unda soliqlar, moliyaviy huquq va sud-huquqiy boshqaruv masalalari keng yoritilgan. Bu asar qozilik amaliyotida qo‘llanilgan eng qadimiy siyosiy-huquqiy traktat hisoblanadi .

Hanafiy fiqhining ikkinchi asosiy me‘mori Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy bo‘lib, u o‘z asarlarida qozilik faoliyatiga oid tafsilotli huquqiy qoidalarni bayon qilgan. Uning mashhur asarlari – “az-Zohirur-Rivoya” to‘plami:

1. al-Asl (al-Mabsut)
2. az-Ziyadat
3. al-Jome’ al-Kabir
4. al-Jome’ as-Saghir
5. as-Siyar as-Saghir
6. as-Siyar al-Kabir

Ushbu asarlarda qozilik faoliyatining turli sohalari (fuqarolik nizolari, jinoyat huquqi, mol-mulk nizolari, xalqaro huquqiy munosabatlar va h.k.) bo‘yicha tafsilotli qoidalar keltirilgan. Muhammad ash-Shayboniy asarlarida sudlov jarayonida bayyina (dalil), shahodat (guvohlik), qasam (qasamyod), iqror (aybni tan olish) kabi isbot vositalarining tartibi va qo‘llanilishi batafsil bayon etilgan.

Hanafiy fiqhida Zohirur Rivoya asarlari:

- Eng ishonchli, birlamchi fatvo va hukm chiqarish manbasi sifatida tan olinadi.
- Keyinchalik kelgan faqihlar va qozilar o‘z qarorlarini birinchi navbatda ushbu asarlarga asoslaganlar.

Ibn Abidin kabi muhaqqiq ulamolar fikricha: “Zohirur Rivoya mazhabning poydevori va ishonchli fikrlar majmuasidir” .

Hanafiy mazhabining dastlabki asosiy manbalari – Zohirur Rivoya asarlari mazhab asoschilarining fikrlarini jamlagan bo‘lsa, keyingi davrlarda vujudga kelgan Navodir va Fatvo asarlari hanafiy qozilik amaliyotini yanada rivojlantirish, hayotiy ehtiyojlarga moslashtirish va kengaytirish vazifasini bajargan. Bu asarlar yangi yuzaga kelgan voqealarga javob topish, amaliy sud jarayonlarida duch kelinayotgan masalalarga hukm chiqarish uchun yozilgan.

Navodir (nodir masalalar) – Zohirur Rivoyaga kirmagan, lekin mazhab doirasidagi boshqa olimlar tomonidan keltirilgan ijthodiy qarorlar to‘plamidir. Navodir masalalar qozilik amaliyotida uchraydigan noan’anaviy va murakkab vaziyatlarda qo‘llanilgan.

Ibn Abidinning ta’kidlashicha: “Agar bir masala Zohirur Rivoyada keltirilmagan bo‘lsa, navodir manbalari ko‘zdan kechiriladi” .

Bu to‘plamlarda ko‘proq amaliy sud-huquqiy muammolar, moliyaviy nizolar, oila huquqi va jinoyat huquqiga doir turli nozik masalalar yoritilgan.

Fatvo kitoblari qozilik faoliyatining amaliy rivojida alohida o‘rin egallaydi. Fatvo – bu mujtahid yoki faqih tomonidan berilgan shar’iy-huquqiy javob bo‘lib, ko‘pincha qozilar aynan fatvo manbalariga tayangan holda qarorlar chiqarganlar.



Qozilar amaliy sud jarayonlarida:

- Avval Zohirur Rivoya asarlariga murojaat qilganlar.
- Zohirur Rivoyada hukm topilmasa, Navodir va Fatvolarga murojaat qilganlar.
- Agar bu manbalarda ham hukm bo‘lmasa, ijtihodiy faoliyatga murojaat qilganlar.

Bu ketma-ketlik hanafiy qozilik tizimining manba ierarxiyasini belgilab bergan.

Qozilik faoliyati shunchaki dalil eshitish va hukm chiqarishdan iborat emas. Bu – chuqur nazariy poydevorga ega, murakkab huquqiy istinbot (deduksiya) jarayoni. Aynan Usul al-fiqh – fiqhiy qaror chiqarish metodologiyasi – qozilik faoliyatining ilmiy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, Hanafiy mazhabida usul ilmi qozilarning huquqiy qarorlarini asoslashda markaziy rol o‘ynaydi.

Hanafiy usulchilari: Abu Bakr al-Jassos, ad-Dabusi, al-Bazdavi, Nasafiy, Sadrush Shari’a va boshqalar – qozilik faoliyatini ilmiy asosda yuritish uchun keng qamrovli qoidalarini ishlab chiqqan.

Bu yondashuv Hanafiy qozilarning sud-huquq amaliyotida doimo moslashuvchan va adolatli qarorlar chiqarishiga imkon bergan.

Hanafiy mazhabida qozilik nazariy asoslar bilan cheklanib qolmaydi. U keng amaliyotga ega bo‘lib, tarix davomida yuzlab qozilar tomonidan turli sharoit va hududlarda hayotiy nizolarni hal qilishda qo‘llanilgan. Qadimiy fiqhiy va tarixiy manbalarda Hanafiy qozilarining sud amaliyotiga oid boy ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, ular orqali sudlov jarayonining real shakli haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

XULOSA

Hanafiy manba ierarxiyasi avval Zohirur Rivoya, so‘ng Navodir va Fatvolar orqali amaliyotga moslashgan. Fatavo Qozixon va Navozil Samarqandiy kabi asarlar real sud ishlarini hal qilishda asosiy qo‘llanma bo‘lgan.

Sud jarayonida dalillar qat’iy tartiblangan: bayyina, guvohlik, iqrar, qasam, hujjat va istishob. Ibn Abidin dalillar ustuvorligini aniq tartiblagan. Guvohlikning adolat va manfaatdorlikdan xoli bo‘lishi shartlari belgilangan.

Amaliy sud majlislari adolat, oshkoralik va ehtiyot mezonlariga asoslangan.

Hanafiy sud-huquq tizimi tarix davomida keng qo‘llanilgan. Usmoniyalar davrida “Majalla” orqali qonunlashtirildi. Bugungi kunda ham musulmon mamlakatlarida shaxsiy huquq va sud tizimlarida uning tamoyillari saqlanmoqda.

Umuman, Hanafiy sud-huquqi – nafaqat tarixiy meros, balki chuqur ilmiy asoslangan, zamonaviy huquq bilan uyg‘unlasha oladigan mustahkam yuridik tizimdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va uning ma’nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol nashr, 2022.

2. Abu Dovud. Sunan. – Bayrut: Dar al-Fikr al-‘Arabi, 1987.

3. Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – B. 269.

4. Al-Mavardi. al-Ahkam al-Sultaniyya. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994. – J.

1.



5. Ibn Abidin. Radd al-Muxtar. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2005. – J. 1. – B. 325.